

**2025 yil yanvar–sentyabr oylarida amalga oshirilgan import hajmi hamda
importni qisqartirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida
МА'LUMOT**

ИНФОРМАЦИЯ

**об объемах импорта и принятых мерах по сокращению импорта
за январь-сентябрь 2025 года**

I. Kombinat tomonidan amalga oshirilgan import tahlili.

2025 yilning yanvar- sentyabr oylarida kombinat bo'yicha mahsulot va xizmatlar importi hajmi **60,5** mln. dollarni tashkil etdi.

“Navoiy KMK” AJ ning mahsulot va xizmatlar importi tarkibi quyidagicha:

1. Mashina va uskunalar – 4.2 mln. doll. (7,0%);
2. Butlovchilar va ehtiyot qismlar – 36,2 mln. dollar (59,8%),
shu jumladan:
 - ichki yonuv dvigatellari (18,9 mln. dollar),
 - kon texnikasiga ehtiyot qismlar (17,3 mln. dollar).
3. Hom-ashyo va materiallar (og'ir yuk ko'taradigan kon-shaxta texnikasi uchun shinalar, oltin namunalari) – **0,7** mln. dollar (1,1 %);
4. Xizmatlar – **19,4** mln. dollar (32,1%).

Kombinatning asosiy faoliyatiga taalluqli bo'lmagan, Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar importi amalga oshirilmadi.

II. Kombinat bo'linmalari quvvatlarida mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish.

2025 yilda mahalliyashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha tasdiqlangan rejaga muvofiq, joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida 183 ta (grafik bo'yicha 182 ta) loyiha bo'yicha **1 120,6** mlrd.so'mlik yoki davr prognoziga nisbatan **102,6** %ga mahsulotlar ishlab chiqarilib, 2024 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **160,2** %ni tashkil etdi.

Xususan, dastur doirasida yangi turdagi yirik maydalash tegirmoni, dozalash nasosi, havo-chang zarralarini tortish uskunasi, issiqlik almashinuv uskunasi, yangi turdagi ekskavator butlovchi va ehtoyot qismlari kabi yangi turdagi importga o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarildi.

III. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperasiya aloqalarini kengaytirish va kooperasiya hisobiga importni optimallashtirish.

2025 yilning yanvar-sentyabr oylarida sanoat kooperasiyasi doirasida mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilingan sanoat mahsulotlar hajmi **5 580,2** mlrd. so'mni va 2024 yilning mos davriga nisbatan **111,7 %** ni tashkil etdi.

Kombinat tomonidan xarid qilinishi ko'zda tutilgan, kelib chiqishi import bo'lgan tovarlar to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron kooperasiya portalida to'liq o'rganish orqali ma'lumotnoma shakllatirilgach xaridlar amalga oshirilmoqda.

“NKMK” AJ tomonidan yanvar-sentyabr oylarida o'tkazilgan yarmarkalarda faol ishtirok etib, joriy yil boshidan mahsulotlar xarid qilish bo'yicha **1,8 trln.** so'mlik shartnomalar tuzildi..

“Navoiy KMK” AJ importni qisqartirish va ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha ishlarni davom ettirish va xaridlar shaffofligini oshirish bo'yicha doimiy choralar ko'rilmoqda.